

UDK: 30 428

LOGISTIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY INGLIZ TILI MULOQOTIGA O'QITISHDA MADANIYATLARARO YONDASHUVNING IJTIMOIY AHAMIYATI

Botirova Palina Xakimjonovna

Namanagn davlat chet tillari instituti, PhD, dotsent

E-mail: palina.botirova@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada logistika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy ingliz tilida muloqotga o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Globalizatsiya va xalqaro logistika tizimlarining rivojlanishi turli madaniyat vakillari bilan samarali hamkorlikni talab qiladi. Shu sababli, talabalar nafaqat ingliz tilini, balki boshqa madaniyatlarni tushunish va ularga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim. Maqolada madaniyatlararo yondashuvning nazariy asoslari va uning kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo yondashuvni o'qitishga joriy etish talabalarni professional muloqotga tayyorlaydi, ularning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi va xalqaro hamkorlikni samarali qiladi.*

Kalit so'zlar: *madaniyatlararo yondashuv, logistika ta'limi, kasbiy ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, globalizatsiya, ijtimoiy ahamiyat*

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF THE INTERCULTURAL APPROACH IN TEACHING PROFESSIONAL ENGLISH COMMUNICATION TO STUDENTS OF THE LOGISTICS FIELD

Palina Xakimjonovna Botirova

Namangan State Institute of Foreign Languages,

PhD, Associate Professor

E-mail: palina.botirova@mail.ru

Abstract: *This article analyzes the social significance of the intercultural approach in teaching professional English communication to students of the logistics field. Globalization and the development of international logistics systems require effective cooperation with representatives of different cultures. Therefore, students need to develop not only English language skills but also the ability to understand and adapt to other cultures. The article highlights the theoretical foundations of the intercultural approach and its role in developing professional communicative competence. The results show that integrating the intercultural approach into teaching prepares students for professional communication, increases their competitiveness in the global labor market, and ensures effective international cooperation.*

Keywords: *intercultural approach, logistics education, professional English, communicative competence, globalization, social significance*

СОЦИАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ «ЛОГИСТИКА» ПРОФЕССИОНАЛЬНОМУ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Палина Хакимжоновна Ботирова

Наманганский государственный институт иностранных языков,

PhD, доцент

E-mail: palina.botirova@mail.ru

Аннотация: В статье анализируется социальное значение межкультурного подхода в обучении студентов направления «Логистика» профессиональному английскому языку. Глобализация и развитие международных логистических систем требуют эффективного сотрудничества с представителями разных культур. Поэтому студентам необходимо развивать не только знания английского языка, но и умение понимать и адаптироваться к другим культурам. В статье раскрываются теоретические основы межкультурного подхода и его роль в развитии профессиональной коммуникативной компетенции. Результаты показывают, что внедрение межкультурного подхода в обучение готовит студентов к профессиональному общению, повышает их конкурентоспособность на глобальном рынке труда и обеспечивает эффективное международное сотрудничество.

Ключевые слова: межкультурный подход, логистическое образование, профессиональный английский, коммуникативная компетенция, глобализация, социальное значение

KIRISH

Bugungi globallasuv jarayonida ta'lim dasturlarini xalqarolashtirish siyosati ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Xususan, ingliz tilida fanlarni o'qitish, madaniyatlararo sezgirlikni rivojlantirishga qaratilgan model va yondashuvlar, shuningdek, kasbiy faoliyat doirasida madaniyatlararo muloqotni shakllantirish hamda ingliz tilini xalqaro kommunikativ vosita sifatida qo'llash nafaqat Yevropa, balki Osiyo mamlakatlari oliy ta'lim tizimida ham keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuvlar natijasida ingliz tili ta'limning asosiy vositasiga aylanib, turli davlatlardan kelgan talabalarni yagona global ta'lim muhitida birlashtirish imkonini bermoqda. Bu esa, ayniqsa, logistika yo'nalishi talabalari uchun muhim bo'lib, ularning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish logistika sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun nafaqat til bilimlarini chuqurlashtirish, balki kasbiy vaziyatlarda samarali muloqot olib borish, xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish va global ta'minot zanjirlarida faol ishtirok etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayon talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos mutaxassis sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Jahon ilmiy-amaliy tajribasida nofilologik, xususan logistika ta'lim yo'nalishi talabalarida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish muammosi kompleks tarzda o'rganilmoqda. Bu borada akademik savodxonlikni shakllantirish (EAP), kasbga yo'naltirilgan ingliz tilini rivojlantirish (ESP), shuningdek, talabalar akademik mobilligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda. Bundan tashqari, ilmiy-texnik, muhandislik va logistika sohasi doirasida pragmatik, diskursiv va axborotga yo'naltirilgan yondashuvlar keng tadqiq etilmoqda. Shu asosda, nofilologik yo'nalish talabalarining chet tilidagi kasbiy muloqotida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni va metodlarni qo'llashning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish dolzarb ilmiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ta'kidlash joizki, kasbga yo'naltirilgan chet tilini bilish hamda og'zaki va yozma nutqni anglashning o'zi zamonaviy professional faoliyat uchun yetarli hisoblanmaydi. Chunki global kasbiy muhitda samarali faoliyat yuritish uchun turli madaniyat vakillari bilan to'g'ri va samarali muloqot o'rnatish, bir xil sohada ishlayotgan, ammo turli ijtimoiy-madaniy muhitga mansub bo'lgan xorijiy hamkasblar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va ularni real kasbiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay olish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

D.M. Isroilova "madaniyatlararo kompetensiya nafaqat til birliklarini egallash, balki boshqa madaniyatni tushunish, unga moslashish, kommunikativ

xulq-atvorni vaziyatga qarab to'g'ri tanlash va turli madaniy kontekstlarda samarali muloqot olib borish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi deya ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, aynan shu kompetensiya talabalarning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlaydi hamda ularning xalqaro darajadagi hamkorlik faoliyatida samarali ishtirok etishiga xizmat qiladi"[1].

Mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida madaniyatlararo kompetensiya alohida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy global kasbiy muhitda, ayniqsa logistika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun turli madaniyat vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish zarurati ortib bormoqda.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, "madaniyatlararo kompetensiya" atamasi ilk bor 1950-yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning yagona nazariy ta'rifi va aniq tuzilmasi hozirgi kungacha to'liq shakllanmagan. Bu esa mazkur tushunchaning murakkab, ko'p qatlamli va dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Madaniyatlararo bilimlar esa o'z navbatida nafaqat til birliklarini egallash, balki mintaqaviy, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikni anglash, turli kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchanlikni namoyon eta olishni ham o'z ichiga oladi.

Chet tillarni o'qitish metodikasida madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismlari yuzasidan turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mazkur kompetensiyaning kompleks tabiatini ochib beradi. Jumladan, A. D. Axtarova o'z tadqiqotlarida kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ta'kidlab, ularning o'zaro integratsiyasi samarali kasbiy muloqotni ta'minlashini asoslaydi. Bu fikr logistika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, ular kasbiy hamkorlik jarayonida hamda xalqaro akademik mobillik sharoitida til va madaniyat uyg'unligini ta'minlashi lozim[2].

Shuningdek, M. Byram madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni murakkab, uzoq muddatli va ko'p bosqichli pedagogik jarayon sifatida izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, ushbu jarayon izchil mantiqiy ketma-ketlik asosida tashkil etilib, talabalarning bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlaydi. Bu

esa, o'z navbatida, logistika ta'lim yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo yondashuvni tizimli ravishda joriy etish zaruratini ko'rsatadi.

Xususan, M. Byram tomonidan ishlab chiqilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya konsepsiyasida lingvistik bilimlar bilan bir qatorda sotsiomadaniy va diskursiv kompetensiyalarning uyg'un rivojlanishi zarurligi asoslab berilgan [3].

D. Hymes tomonidan ilgari surilgan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya nazariyasida til birliklarining ijtimoiy kontekstda mos va maqsadga muvofiq qo'llanishi asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, madaniy komponentlar yetarli darajada hisobga olinmagan holda tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalarda nutqiy faoliyatda pragmatik xatolarga yo'l qo'yilishi, kommunikativ to'siqlar yuzaga kelishi hamda madaniy noto'g'ri talqinlar kuzatilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, tilni o'rganish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi[4].

Tadqiqotimizda logistika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy ingliz tili muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning didaktik, pedagogik va psixologik omillarini kompleks tarzda tahlil qilish hamda ushbu omillarning o'zaro bog'liqligi hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'zni ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari xorijiy til ta'limi metodikasini takomillashtirish, shuningdek, talabalarda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi .

So'nggi yigirma yil davomida til o'qitish jarayonida madaniyatni o'rgatishning o'zni va ahamiyati haqida ilmiy munozaralar tobora kuchayib bormoqda. Bundan tashqari, ko'plab lingvistlar, sotsiolingvistlar va antropologlar xorijiy til ta'limida madaniyatning ta'sirini o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

Biroq, madaniyat tushunchasi keng qamrovli bo'lib, uni turli nuqtai nazarlardan talqin qilish mumkin. Shu sababli, tilni o'qitish va o'rganish jarayonida madaniyatning o'zni bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan.

Tadqiqotimizda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaga oid ilmiy adabiyotlarning kompleks tahlili yoritiladi. Madaniyat va madaniyatlararo kompetensiya tushunchalarini chuqur anglash maqsadida yetti asosiy bo'lim ko'rib chiqiladi.

“Madaniyat” tushunchasini aniqlash va uni to‘liq anglash murakkab jarayon hisoblanadi, chunki ushbu tushuncha nihoyatda keng qamrovga ega. Shu sababli, B.Street “Madaniyat nima?” degan savolga aniq va yagona javob berish deyarli inkonsiz ekanligini ta’kidlaydi [5].

Amerikalik antropologlar A.Kroeber va C.Kluckhohn o‘zlarining “Culture: A critical review of concepts and definitions” nomli asarida madaniyatga berilgan 300 ga yaqin ta’rifni aniqlaganlar [6].

“Madaniyat” atamasi lotincha “cultura” yoki “cultus” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, dastlab “agriculture” (qishloq xo‘jaligi), ya’ni yerga ishlov berish, uni parvarish qilish ma’nosini anglatgan. Ushbu faoliyatni ifodalovchi ildiz ma’nosidan kelib chiqib, madaniyat tushunchasi keyinchalik rivojlanib, ma’lum bir holat yoki “tarbiyalanganlik darajasi”ni ifodalovchi tushunchaga aylangan.

Umuman olganda, ko‘plab tadqiqotchilar madaniyatni muayyan jamiyatga xos san’at, adabiyot, urf-odatlar va taomlar majmui sifatida talqin qiladilar. Bular madaniyatning ko‘zga ko‘rinadigan (ya’ni tashqi) jihatlari hisoblanadi. Biroq, madaniyatning ko‘rinmas (ichki) tomonlari ham mavjud bo‘lib, ularga e’tiqodlar, qadriyatlar, me’yorlar va munosabatlar kiradi.

Shu nuqtai nazardan, “New Encyclopedia Britannica” madaniyatni quyidagicha ta’riflaydi:

“Madaniyat - bu Homo sapiens (madaniyat yaratish va uni avloddan-avlodga uzatish qobiliyati)ga xos bo‘lgan xulq-atvor hamda ushbu xulq-atvorning ajralmas qismi sifatida qo‘llaniladigan moddiy obyektlar majmuidir. Aniqroq aytganda, madaniyat til, g‘oyalar, e’tiqodlar, urf-odatlar, qoidalar, vositalar, texnologiyalar, san’at asarlari, marosimlar va rasm-rusumlarni o‘z ichiga oladi” [7].

Garchi madaniyatga oid ko‘plab ta’riflar turli ilmiy nuqtai nazarlardan kelib chiqqan bo‘lsa-da, T. Nguyen o‘z tadqiqotida ularning odatda yetti umumiy yo‘nalish doirasida o‘zaro uyg‘unlashishini ta’kidlaydi. Bular quyidagilardan iborat: tuzilma yoki tizim (structure or pattern), amaliy jihat (function), jarayon (process), mahsulot (product), takomillashuv (refinement), hokimiyat yoki ideologiya (power or ideology) hamda, guruhga mansublik (group membership). Mazkur tasnif C. Faulkner va boshqalar tomonidan ilgari surilgan madaniyat ta’rifiga asoslanadi [8].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot logistika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy ingliz tili muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u kompleks ilmiy metodlar tizimiga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika, lingvistika hamda tarjimashunoslik sohasidagi nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan tizimli ravishda foydalanildi: Birinchidan, tahlil va sintez metodi qo'llanildi. Ushbu metod orqali madaniyatlararo yondashuvning nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari hamda kasbiy ingliz tilini o'qitish jarayonidagi o'rni alohida-alohida o'rganildi va keyinchalik yagona tizimga keltirildi. Xususan, madaniyatlararo kompetensiyaning bilim, ko'nikma va munosabat kabi elementlari ajratib olinib, ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi yordamida turli madaniyat vakillarining kommunikativ xulq-atvori, nutq strategiyalari hamda muloqot uslublari o'zaro taqqoslandi. Bu metod orqali talabalar duch kelishi mumkin bo'lgan real kommunikativ vaziyatlar modellashtirildi hamda madaniy farqlarning kasbiy muloqotga ta'siri aniqlab berildi. Ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita kommunikatsiya, vaqtga munosabat, rasmiylik darajasi kabi omillar tahlil markazida bo'ldi.

Uchinchidan, ilmiy adabiyotlarni o'rganish metodi doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning madaniyatlararo kommunikatsiya, kasbiy til o'qitish hamda kommunikativ kompetensiya masalalariga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ushbu metod tadqiqotning nazariy asoslarini mustahkamlash, mavjud yondashuvlarni umumlashtirish hamda muammoning dolzarbligini asoslash imkonini berdi.

To'rtinchidan, pedagogik kuzatuv metodi orqali logistika yo'nalishi talabalarining o'quv jarayonidagi kommunikativ faoliyati bevosita monitoring qilindi. Xususan, talabalar ishtirokidagi rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar (case study), guruhli muhokamalar hamda amaliy mashg'ulotlar jarayonida ularning til va madaniyatga oid xatti-harakatlari kuzatildi. Bu jarayonda talabalar tomonidan qo'llanilgan kommunikativ strategiyalar, yuzaga kelgan qiyinchiliklar hamda madaniyatlararo moslashuv darajasi tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida kuzatuv natijalari umumlashtirilib, ular asosida madaniyatlararo yondashuvni qo'llashning samaradorligi baholandi. Tadqiqot jarayonida logistika yo'nalishi talabalarining kasbiy ingliz tilidagi kommunikativ faoliyati aynan madaniyatlararo yondashuv nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilindi. Bunda talabalar tomonidan amalga oshirilgan og'zaki va yozma muloqot, xalqaro logistika kontekstidagi vaziyatli topshiriqlarni bajarish jarayoni, shuningdek, turli madaniyat vakillari bilan simulyatsion muloqot faoliyati asosiy tahlil obyekti sifatida belgilandi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot logistika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy ingliz tili muloqotiga o'qitishda madaniyatlararo yondashuvning ijtimoiy ahamiyatini kompleks tarzda yoritishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy global iqtisodiy makonda faoliyat yurituvchi logistika mutaxassislaridan nafaqat yuqori darajadagi til bilimlari, balki rivojlangan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya ham talab etiladi.

Aniqlanishicha, madaniyatlararo yondashuvni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish talabalar tomonidan kasbiy ingliz tilida samarali muloqot olib borish, turli madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilish hamda murakkab kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Ayniqsa, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlar va autentik materiallarga asoslangan mashg'ulotlar talabalar faoliyatini real kasbiy muhitga yaqinlashtirishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalar madaniyatlararo kompetensiyaning quyidagi komponentlari — madaniy bilim, kommunikativ ko'nikma va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik — o'zaro uyg'un holda shakllanishi zarurligini tasdiqladi. Ushbu komponentlarning rivojlanishi esa talabalarni xalqaro logistika tizimida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Shuningdek, madaniyatlararo yondashuvning ijtimoiy ahamiyati uning kengroq ta'sir doirasida namoyon bo'lishi bilan izohlanadi. Xususan, u global hamkorlikni rivojlantirish, madaniyatlararo to'siqlarni kamaytirish, professional kommunikatsiyada yuzaga keladigan nizolarni oldini olish hamda jamiyatda

tolerantlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur yondashuv nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham baholanishi mumkin.

Tadqiqot yakunlariga asoslanib shuni ta'kidlash mumkinki, logistika ta'lim tizimida kasbiy ingliz tilini o'qitishda madaniyatlararo yondashuvni keng joriy etish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur. Bu esa o'z navbatida raqobatbardosh, global fikrlovchi va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda madaniyatlararo kompetensiyani baholash mezonlarini ishlab chiqish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda raqamli ta'lim muhitida madaniyatlararo yondashuvni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исроилова Д. М. Специфические особенности обучения иноязычному профессиональному общению студентов – будущих инженеров с учётом межкультурной компетенции // Современное образование (Узбекистан). 2021. №9 (106).
2. Street B. Social Literacies: Critical Approaches to Literacy in Development, Ethnography and Education / B. Street. – London: Longman, 2000. – 248 p.
3. Kroeber A. L., Kluckhohn C. Culture: A Critical Review of Concepts and Definitions / A. L. Kroeber, C. Kluckhohn. – Cambridge, MA: Peabody Museum of Archaeology and Ethnology, Harvard University, 1952. – 223 p.
4. Saluveer E. Teaching culture in English classes / E. Saluveer. – Tartu: University of Tartu, 2004. – 98 p.
5. Light J. Toward a Definition of Communicative Competence for Individuals Using Augmentative and Alternative Communication Systems / J. Light // Augmentative and Alternative Communication. – 2000. – Vol. 5, No. 2. – P. 137–144.
6. Encyclopedia Britannica / Ed. J. L. McCredie. – Chicago: Encyclopedia Britannica, Inc., 2001. – Vol. 15. – 1624 p.
7. Nguyen T. The Role of Communicative Competence in English Language Teaching / T. Nguyen // Journal of Language and Education. – 2013. – Vol. 1, No. 2. – P. 45–53.
8. Faulkner C., Bohn O.-S. An Introduction to Applied Linguistics / C. Faulkner, O.-S. Bohn. – London: Continuum, 2006. – 320 p.